

## SHARTNOMA

### Tovarni ishlab chikarish, yetkazib berish, o'rnatish, montaj kilish va ishga tushirish bo'yicha

Bundan keyin «Buyurtmachi» deb ataluvchi, Nizom asosida ish yurituvchi Muborak tuman Davlat soliq inspeksiyasi nomidn **A.Ravshanov** va bundan keyin «Ijrochi» deb ataluvchi, Ustav asosida ish yurituvchi "HOME SPOT-QARSHI" MCHJ nomidan Bosh direktor **I.Ungbayev** (bundan keyin birgalikda «Tomonlar» deb ataladi, va mazkur shartnomada ko'rsatilgan xar bir yuridik shaxs «Tomon» deb ataladi) ushbu Shartnomani quyidagilar xaqida tuzdilar:

#### I. SHARTNOMA MAVZUSI

1.1 **Ijrochi Buyurtmachiga** xududiga 30 kBT quvvagga ega tarmoq quyosh elektr stansiyasini (bundan buyon matnda «Tovar» deb ataladi) ishlab chiqarish, yetqazib berish, o'rnatish, montaj qilish va ishga tushirish bo'yicha ishlarni bajarish majburiyatini oladi. **Buyurtmachi** quydagi manzilda joylashgan - Muborak tumani Zanjirsaroy shox kuchasi, 15 -uy.

1.2 **Ijrochi** ushbu Shartnomani tuzish vaqtida Tomonlar tomonidan kelishilgan va imzolangan (Shartnomaning ajralmas qismi bo'lган 1-ilova) muvofik Tovarni ishlab chidarish majburiyatini oladi. **Buyurtmachi** tomonidan Texnik topshiriqlarga xar kanday o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda. ushbu uzgarishlar ushbu Shartnomaga yozma qushimcha kelishuv asosida **Ijrochi** bilan kelishilganidan keyin yakuniy o'zgartirilgan deb xisoblanadi.

#### II. TOVARNING NARXI VA TO'LOV TARTIBI

2.1 Mazkur Shartnoma bo'yicha Tovarning narxi qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) bilan birga 299 500 000 (Ikki yuz to'qson to'qqiz million besh yuz ming) so'mni tashkil etadi.

2.2 Ushbu Shartnoma bo'yicha to'lov **Buyurtmachi** tomonidan **Ijrochi** xisob raqamiga pul mablag'larini quyidagi tartibda o'gkazish yuli bilan amalga oshiriladi:

2.2.1. Tomonlar tomonidan ushbu Shartnoma imzolangan kundan boshlab 5 (besh) bank kuni ichida Tovar kiymatining 30 foizi miqdorida oldindan to'lov;

2.2.2. Tovar kiymatining qolgan 70 foizi Tovar **Buyurtmachi** manziliga yetqazib, o'rnatib, ishga tushirib berilgandan so'ng qonunchilikda belgilangan tartibda **Buyurtmachi** tomonidan qabul kilib olingan kundan boshlab 10 kun ichida amalga oshiriladi.

#### III. TOVARNI ISHLAB CHIQARISH, YETQAZIB BERISH, O'RNATISH, MONTAJ QILISH VA ISHGA TUSHIRISH SHARTLARI

3.1 Ushbu Shartnoma bo'yicha **Ijrochi** tomonidan **Buyurtmachiga** Tovarni ishlab chiqarish, yetqazib berish, O'rnatish, montaj qilish va ishga tushirish shartlarining bajarilishi to'lov amalga oshirilgan paytdan boshlab 60 (oltmish) ish kun etib belgilanadi. Shunda **Ijrochi** tomonidan ishlarni bajarilganda, obi-xavo buzilishi xolatlari mavjud bo'lsa, ya'ni yomg'ir va qor yog'sa, va (yoki) momaqaldrok va tuman mavjud bo'lganida, xamda kuchli shamol ezsa, unda ishlarni tuxtalidi. Ish jarayoni tuxtagishga

Ijrochi majburligi sababi, ishchilar balandlikda ochiq ob-xavoda tarmoq quyosh fotoelektr stansiyalarini o'rnatadi va ushbu stansiya elektr ishlab chiqaradi, va shunda obi-xavo bo'zilishi xolatlari mavjud bo'lganda elektr tok ularni sog'lig'iga katta zarar yetkazishi mumkin, Shu sababdan ishlarni mexnat muxofazasi bo'yicha xukumatimiz va

vakolatga ega bo'lgan Davlat organlari kungina normativ-meyoriy xujjalalar qabul qilgan, ya'ni O'zbekiston Respublikasi «Mexnatni muxofaza qilish tug'risida» qonuni,

Mexnat va axolini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligi tomonidan 2008 yil 17 dekabrdagi 75-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Balandlikda ishlaganda mexnatni muxofaza qilish qoidalari» va boshqalar.

3.2 Ijrochi Tovarni **Buyurtmachiga** muddatidan avval yetqazib berish xuquqiga ega.

3.3 Ijrochi ushbu Shartnoma bo'yicha o'z Shartnoma majburiyatlarini 5  
**Buyurtmachi**

(besh) bank kuni ichida **Ijrochinng** xisob raqamiga oldindan to'lov qilingan kundan boshlab bajarishga kirishadi.

#### IV. SHARTNOMA BO'YICHA TOMONLARNING XUSUSLARI VA MAJBURIYATLARI

4.1 Ushbu Shartnoma bo'yicha Tomonlar quyidagi xuquqlarga ega:

- ushbu tuzilgan Shartnomani tuzish va bekor qilish munosabati bilan zarur bo'lgan ma'lumotnomalar va boshqa xujjalarni surash va olish;
- xuquk va qonuniy manfaatlarini ximoya qilishni ta'minlash uchun amaldagi qonun xujjalarda nazarda tutilgan vositalar va usullarni qullash;

4.2 Ushbu Shartnoma bo'yicha Tomonlar quyidagilarga majburdirlar:

- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga rioya qilish;
- tuzilgan ushbu Shartnoma talablariga muvofiq o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini o'z vaqtida va tegishli tartibda bajarish.

4.3. **Buyurtmachi** quyidagilarga majbur:

- ushbu Shartnoma bo'yicha yetqazib berilgan Tovar uchun o'z vaqtida dastlabki va yakuniy to'lovni amalga oshirish;
- Tovarni o'rnatish tugallanganligi tug'risida bildirishnomasi olgandan so'ng, ikki kun ichida Tovarni o'rnatish bo'yicha ish xajmini ko'rib chiqish va qabul qilish va nuqsonlar aniqlangan taqdirda, bu xaqda **Ijrochiga** ma'lum qilish.

4.4. Ijrochi quyidagilarga majbur:

- Ushbu shartnomada begilangan tartibda Tovarni yetqazib berish;
- **Buyurtmachi** vakili ishtirokida ushbu Shartnoma bo'yicha Tovarni ishga tushirishni amalga oshirish va Tovarni O'rnatish bo'yicha ishlarni bajarishda **Buyurtmachining** yozma va (yoki) og'zaki tavsiyalariga rioya qilish;
- texnik toshpiriqlardan chetga chiqishlarni **Buyurtmachi** bilan kelishish;
- ushbu Shartnomada belgilangan muddatlarda Tovarni **Buyurtmachiga** topshirish;
- ushbu Shartnomada ko'rsatilgan Tovarni o'rnatish bo'yicha texnik topshiriq va ish xajmini **Buyurtmachining** rozilgisiz uchinchi shaxslarga bermaslik.

#### V. TOVARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI

5.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha Tovarni topshirish **Buyurtmachining** vakolatlari vakili tomonidan imzolangan Tovarni ikki tomonlama topshirish-qabul qilish dalolatnomasi imzolangandan so'ng yakuniy topshirilgan xisoblanadi.

5.2. **Buyurtmachi** Tovarni topshirish to'g'risidgi bildirishnomani olgan kundan boshlab 10 (Un) kun ichida:

- yoki Tovarni qabul qilishi va Tovarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini imzolashi;

- yoki Tovarni qabul qilishdan bosh tortishi va **Ijrochiga** asoslantirilgan rad javobini yuborishi kerak.

Asosli raddiya bo'lган taqdirda, tuzatishlar ro'yxati va aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etish muddatlari kursatilgan ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

## **VI. DA'VOLARNI TAQDIM ETISH VA KO'RIB CHIQISH TARTIBI**

6.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha xuquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan Tomon boshqa Tomonga qonun xujjalalarida belgilangan tartibda va muddatlarda da'volar quyish xuquqiga ega.

6.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha da'vo arizasi berilgan Tomon da'vo olingan kundan boshlab 30 (o'ttgiz) kun ichida ushbu da'voga yozma javob berishga majburdir.

6.3. Belgilangan muddatlarda da'vo arizasi rad etilgan (qisman rad etilgan) yoki javob ololmagan Tomon, tegishli sud qarorini olish uchun Toshkent shaxar iqtisodiy sudiga da'vo arizasi bilan murojaat qilishi mumkin.

## **VII. SHARTNOMA BO'YICHA MAJBURIYATLARINI BO'ZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK**

7.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun **Ijrochi** va **Buyurtmachi** O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

7.2. Tovarni toshpirish muddatlari o'z vaqqida bajarilmagan taqdirda, **Ijrochi Buyurtmachiga** kechiktirilgan xar bir kun uchun Tovar qiymatning 0,04% miqdorida, lekin Tovar qiymatining 50% dan ko'p bo'lмаган mikdorda jarima to'laydi.

7.3. Ushbu Shartnomada nazarda tugilgan muddatlarda to'lovni uz vaqtida to'lamaganlik va (yoki) kechiktirganlik uchun **Buyurtmachi Ijrochiga** kechiktirilgan xar bir kun uchun 0,05% miqdorida, lekin kechiktirilgan to'loving 50% dan ko'p bo'lмаган miqdorda jarima to'laydi.

## **FORS-MAJOR XOLATLARI**

8.1. **Tomonlar** Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganliklari uchun, agar ularni bajarishning ilojsizligi Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga bevosita ta'sir qiluvchi tabiiy ofatlar yoki xarbiy xarakatlar, shuningdek, davlat organlari tomonidan ushbu Shartnoma shartlarini bajarishga tusqinlik qiluvchi qonun xujjalarni qabul qilish va (yoki) o'zgartirish kabi fors-major xolatlari natijasida yuz bergen bo'lsa, javobgar bo'lmaydilar.

## **IX. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR**

9.1. Mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar, ularning xodimlari yoki vositachilari xar qanday shaxsga tug'ridan-tug'ri yoki bilvosita pul yoki qimmatbaxo narsalarni to'lamaydi, to'lashni taklif qilmaydi yoki to'lashga ruxsat

bermaydi. Xar qanday shaxslarning qarorlari o'zgartirishlari uchun yoki nomaqbul ustunlikka erishish yoki boshqa nomuvofiq maqsadlarga erishishga yul quymaydi.

9.2. Tomonlar, ularning xodimlari yoki vositachilari ushbu shartnomaga bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda amaldagi qonunchilikda pora berish (olish), shuningdek amaldagi qonun xujjalarni yoki korrupsiyaga qarshi xalqaro aktlar talablarini buzuvchi boshqa xarakatlarni amalga oshirmaydilar.

9.3. Agar tomonlardan biri ushbu bandning xar qanday qoidalaringin buzilishi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lismi mumkin deb gumon qilsa, tegishli tomon boshqa tomonni yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Yozma bildirishnomada tomon boshqa tomon, uning xodimlari yoki vositachilari tomonidan ushbu bandning xar qanday qoidalari bo'zilishi sodir bo'lgan yoki bo'lismi mumkin bo'lganligini ishonchli tasdiqlovachi yoki ishontirish uchun asos bo'ladigan faktlarga xavola qilishi yoki materiallarni taqdim qilishi kerak.

9.4. Agar Tomonlardan biri ushbu band qoidalari bo'zsa, boshqa Tomon shartnomani bir tomonlama bekor qilish tug'risida yozma bildirishnomada yuborish orqali shartnomani suddan tashqari bir tomonlama tartibda bekor qilishga xaqli.

#### X. YAKUNIY SHARTLAR

10.1. Ushbu Shartnomaga kiritilgan xar qanday o'zgartirish va ko'shimchalar, agar ular yozma ravishda tuzilgan va tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolangan bo'lsa, xaqiqiy xisoblanadi.

10.2. Tomonlarning xech biri boshqa Tomonning yozma rozilgisiz Shartnomaga bo'yicha o'z xuquqlarini uchinchi tomonga utkazishga xaqli emas.

10.3. Ushbu Shartnomaga ikki nusxada tuzildi. Ikkala nusxa xam bir xil va bir xil yuridik kuchga ega. Tomonlarning xar biri ushbu Shartnomaning bitta nusxasiga ega.

10.4. Ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan barcha masalalarda tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi amal qiladilar.

10.5. Mazkur shartnomaga imzolanganidan kundan to 2022-yil 31-dekabr kuniga qadar amal qiladi. Lekin mazkur shartnomaning 3.1. bandida kursatilgan xolatlar mavjud bo'lganda ushbu shartnomaga muddati, qonunchilikda belgilangan tartibda, uzaytirilishi mumkin.

#### TARAFLARNING REKVIZITLARI VA IMZOLARI:

##### «IJROCHI»

«HOME SPOT-QARSHI» MCHJ

Manzil: Qarshi sh. Bog'obod MFY

Tuqmagnit q-q.

Sh/x: 2020 8000 7052 8469 9001

ATIB "Ipotika bank" Qashqadaryo viloyat

##### «BUYURTACHI»

MUBORAK TUMAN DAVLAT SOLIQ  
INSPEKSIYASI

Manzil: Muborak tuman, "Bobur" MFY

Zanjirsaroy Kuchasi 15-uy.

sh/x: 2340 2000 3001 0000 1010:

filali.

**MFO:** 00190, **INN:** 307 605 198

**OKONX:** 46 730

**Registratsiya №. QQS:** 310 070 126 785.

**Tel:** (97) 941 99 95 Buxgalteriya.

Bank: Markazyay Bank Toshkent sh

**MFO:** 00014, **INN:** 200 699 042

**OKONX:** 84119


O'z. Res. Moliya Vazirligi G'aznachiligi

**x/r:** 400110860102347011332093001

**Tel:** (75) 672 38 74,

(75) 672 23 00;

(90) 518-27-77



**Rahbar:** \_\_\_\_\_ **A.R.Ravshanov**

	Hujjat <b>elektron raqamli imzo</b> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun <b>QR Code</b> ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	ASQAR RAVSHANOV RAXMANKULOVICH
	Imzolangan sana	16.12.2022 11:15
	Hujjat kodi	<b>IZ3343444005</b>
	Hulosa kodi	<b>JU3422052427</b>

-sonli shartnomaga 1-Ilova

“O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi, Qashqadaryo viloyati Davlat soliq boshqarmasi Muborak tuman Davlat soliq inspeksiyasi” mamuriy binosinga quyosh panelini xarid qilish (o‘rnatish) ro‘yxati.

Nº	Nomlanishi	o‘/b	soni
	Quvvati 30kVt/380v/30Gs li qayta tiklanadigan eletr stansiyasi, (quyosh panellari: Monokristalli, quvvati 450W kam bo‘limgan, T=25°C E=300Vt/m <sup>2</sup> Ramka: Alyuminiy qoplangan ramki Eloxol, O‘lchami: 2108x1048x40mm, Og‘irligi 24 kg, Modullarning quvvati 30 kVt dan kam emas, Malaka sertifikati: IESIES61215, IES61730-1, IES61730-2, SE Grid invertor) O‘zgarmas tok kuchini o‘zgartiruvchan tok kuchiga aylantiruvchi. Tarmoq invertori INVT, Umumiy quvvati 30 kW-3ph/380-Nemis yadro texnologiyasi, super keng kuchlanish diapozoni, juda past boshlanhich kuchlanish va yuqori konversiya samaradorligi, maksimal samaradorlik 97,8% gacha, ishonchliligi: alyuminiy korpus, tabiiy issiqlik tarqalishi, IP66 himoya darajasi).	komplekt	1

"Ijrochi" Rahbar:

I.M.Ungbayev

	Hujjat <b>elektron raqamli imzo</b> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyigini tekshirish uchun <b>QR Code</b> ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	ASQAR RAVSHANOV RAXMANKULOVICH
	Imzolangan sana	16.12.2022 11:15
	Hujjat kodi	<b>IZ3343444005</b>
	Hulosa kodi	<b>JU3422052427</b>

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

JU3422052427

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **Muborak tuman DSI va Home Spot-Qarshi MCHJ Quyosh panel shartnomasi**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Muborak tuman davlat soliq inspeksiyasi tomonidan 16.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Muborak tuman  
yuridik markazi  
bosh yuristkonsulti:**



**I.A.XO‘JAMURODOV**

16.12.2022

## «ТАСДИКЛАЙМАН»

Қашқадарё вилоят Давлат солиқ  
бошқармаси Муборак туман Давлат  
солиқ инспекцияси бошлиғи

С.Нурмаматов

15.12.2022 йил



Муборак тумани

Қашқадарё вилоят Давлат солиқ бошқармаси Муборак туман Давлат солиқ инспекциясида маъмурий биносинга қўёш панелини харид қилиш (ўрнатиш) бажариш ишларини таъминлаш бўйича танлов асосида шартнома тузиб сотиб олишни ташкил қилиш комиссиясининг

### ТАНЛОВ КОНКУРС БАЁНИ:

Комиссия раиси

Муборак туман ДСИ бош мовини: С. Нурмаматов

### АЪЗОЛАРИ:

Б. Шерниёзов	Комиссия аъзоси
Ш.Хожиева	Комиссия аъзоси
Н. Султонова	Комиссия аъзоси
Х. Атауллаев	в.б. хисобчи
Б. Гулматов	хужалик мудири

### Кун тартибида куриладиган масала:

Қашқадарё вилоят Давлат солиқ бошқармаси Муборак туман Давлат солиқ инспекциясида маъмурий биносинга қўёш панелини энергияси билан таъминлаш учун 2022 йил декабрь ойи аутсорсинг фирмаси билан шартнома килиш ва шартномани тасдиклаш туғрисида.

Комиссия танлов конкурсга катнашган вакилларнинг таклифларини кўриб чиқиб, Муборак туман ДСИни қўёш панелини билан таъминлаш ва (ўрнатиш) таклифи билан 2 та хусусий корхона қатнашадиганликгини эълон қилди. Улар куйидагича:

Танлов конкурсе бўйича 2022 йил 05 декабрь кунида лот № 22110012202240 сонли протокол эълон куйилгандан кейин 2 та ташкилот узини таклифлари билан катнашди ва энг юкори балл "HOME SPOT

QARSHI" МЧЖ олии ва 2 күн мухокамада күйгүлди хамда бонка эътиrozлар булмагандан кейин "HOME SPOT QARSHI" МЧЖ билан шартнома тузилди.

**ТАНЛОВ КОНКУРС КОМИССИЯ ҚАРОРҚИЛАДИ:**

1. "HOME SPOT QARSHI" МЧЖ голиб деб топилсин.
2. "HOME SPOT QARSHI" МЧЖ кохонаси томонидан тавсия этилган күёш панелини етқазиб бериш (ўрнатиш) шартнома тузиб олиб келишини хужалик мудири Б.Гулматовга топширилсин.
3. Ушбу баённома карорини бажарилишини назорат қилиш бош хисобчи в.б. Х. Атауллаевга юклатилсин.

Комиссия раиси

Муборак т. ДСИ бон мөвнини:

 С. Нурмаматов

Аъзолари:

 Н. Султонова

 Ш.Хожиева

 Б.Шерниёзов

 Х. Атауллаев

 Б.Гулматов

